


2019 yil

XORAZM VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI

Sog'liqni saqlash statistikasi-sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini, aholining umumiy salomatlik holati va alohida kontingentlarining miqdoriy xususiyatlari, tarkibi, kasallanish chastotasi va tarqalishini o'r ganuvchi statistika tarmog'i hisoblanadi.



2018 yilda 42 ta shifoxona muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2019 yilga kelib ularning soni 19,0 foizga ko'paydi, ya'ni 50 tani tashkil etdi.




2020 yil 1 yanvar holatiga Xorazm viloyatida 335 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari mavjud bo'lib, ularning soni 2018 yilga nisbatan 10,6 foizga (32 ta) oshdi.


Tibbiyot muassasallari faoliyati

Hududlar kesimida davolash profilaktika muassasalari soni, birlikda


Shifoxona muassasalari



Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni



Davolash profilaktika muassasalari dinamikasi



2019 yilda ambulatoriya-poliklinika muassasalarining bir smenadagi quvvati 2018 yilga nisbatan 1,4 foizga oshdi. 2018 yilda ambulatoriya-poliklinika muassasalari bir smenada 20,5 ming kishini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2019 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 20,8 ming kishini tashkil etdi.



Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining bir smenadagi quvvati, ming kishi

2018 yil

2019 yil

20,5

20,8



Aholining shifoxona o‘rinlari bilan ta‘minlanganlik darajasi

2018-2019 yillar




Shahar va tumanlar nomi	Shifoxona muassasalarida o‘rinlar soni, birlikda 2018 yil	Shifoxona muassasalarida 10000 aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rinlar soni 2018 yil	Shifoxona muassasalarida o‘rinlar soni, birlikda 2019 yil	Shifoxona muassasalarida 10000 aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rinlar soni 2019 yil
Xorazm viloyati	6877	37,5	6966	37,3
shaharlar:				
Urganch	2783	196,4	2833	197,1
Xiva	26	2,9	26	2,8
tumanlar:				
Bog‘ot	350	21,8	370	22,6
Gurlan	355	24,4	376	25,5
Qo‘siko‘pir	347	20,6	352	20,5
Urganch	725	37,4	748	37,9
Hazorasp	512	21,0	502	20,3
Xonqa	400	21,9	390	21,0
Xiva	554	38,9	544	37,5
Shovot	403	24,2	403	23,8
Yangiariq	210	18,5	210	18,2
Yangibozor	212	24,8	212	24,4

2019 yilda statsionar muassasalardagi o‘rinlar soni 2018 yilga nisbatan 1,3 foizga ko‘ ‘paydi. Har 10000 aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rinlar soni esa 37,3 tani tashkil qildi.




Aholining kasalliklarga chalinishi


Birinchi marta ro'yxatga
olingan kasalliklar soni, ming
kishi



Birinchi marta ro'yxatga
olingan kasalliklarning yosh
bo'yicha taqsimlanishi, % da



100000 kishiga nisbatan kasallanish darajasi






Xorazm viloyatida jinsi bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi






2019 yilda tibbiyot muassasalarida birinchi marta ro'yxatga olingan kasalliklar soni 929,2 mingta bo'lib, ulardan 53 foizi ayollarda va 47 foizi erkaklarda aniqlangan.

Birinchi marta ro'yxatga olingan kasalliklarda erkak va ayollar ulushi, % da

2018 yil



2019 yil



Birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar har 100000 aholi soniga nisbatan hisoblanganda, deyarli barcha hududlarda ayollar ulushining yuqoriligi kuzatiladi.

Xorazm viloyatida shahar va tumanlar bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi

(2018-2019 y.)

Shahar va tumanlar nomlanishi	Birinchi marta qo'yilgan tashxis bilan qayd qilingan kasalliklar (100000 aholiga nisbatan)			
	2018 yil		2019 yil	
	Ayollar	Erkaklar	Ayollar	Erkaklar
Xorazm viloyati	54 509,5	48 692,3	53 212,7	47 182,2
shaharlar:				
Urganch	51 783,2	52 966,1	54 819,6	52 956,1
Xiva	35 745,6	32 207,2	37 304,5	29 989,0
tumanlar:				
Bog'ot	61 662,5	46 007,6	53 362,2	43 624,9
Gurlan	54 201,7	50 274,0	54 702,9	48 534,5
Qo'shko'pir	57 831,3	47 919,1	56 913,5	47 446,1
Urganch	61 243,5	59 895,3	65 540,2	66 491,3
Hazorasp	56 342,7	54 870,9	56 462,6	51 889,0
Xonqa	57 477,7	47 541,0	54 706,8	40 483,2
Xiva	46 207,9	45 428,6	44 028,5	43 503,0
Shovot	53 510,9	43 863,9	48 542,2	41 884,4
Yangiariq	53 860,0	39 754,8	48 877,3	38 820,9
Yangibozor	49 530,5	49 172,6	47 163,3	44 619,0



kasallanish darajasi

Shifokorlar soni, *birlikda*



2018 yilda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida 5,0 ming shifokor faoliyat yuritgan bo'lsa, 2019 yilga kelib ularning soni 5,1 ming kishini (2,0 foizga oshdi) tashkil etdi.



5024



5130



O'rta tibbiyot xodimlari soni, *birlikda*



O'rta tibbiyot xodimlari soni esa 2018 yilda 15,9 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda 16,1 ming kishini tashkil etdi.



15886




16143



Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganligi

(2018-2019 yillar)



10000 aholiga hisoblangan shifokorlar soni 27,5 (2018 yil) dan 27,6 (2019 yil) ga ko'paygan, o'rta tibbiyot xodimlari soni esa 87,3 dan 87,0 ga kamaygan.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

(62) 224-65-21